

**“KO‘RISHDA NUQSONI BOR BO‘LGAN BOLALAR IJTIMOIIY  
MOSLASHUVIDA INNAVATSION METODIKALAR VA RIVOJLANTIRISH  
TAJRIBALARI”**

**Aliyeva Xusniya Kazakbayevna**

*Jizzax shahar 5-sonli Davlat Ko‘p Tarmoqli Ixtisoslashtirilgan Maktabgacha Ta‘lim  
Tashkiloti tarbiyachisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Jizzax shahar 5 sonli Ixtisoslashgan Maktabgacha Ta‘lim Tashkilotida ko‘rishda nuqsoni bor bolalarni tarbiyalash va rivojlantirish tajribasi yoritiladi. Maqolada guruhdagi tarbiyachining vazifalari, individual yondashuv, maxsus vositalar va metodikalar hamda bolalarning jismoniy, nutqiy va ijtimoiy rivojini ta‘minlash yo‘llari ko‘rib chiqilgan.

**Kalit so‘zlar:** Ko‘rishda nuqsoni bor bolalar, maxsus ta‘lim, tarbiya, ixtisoslashgan bog‘cha, individual yondashuv, rivojlanish

**Аннотация:** В данной статье рассматривается опыт воспитания и развития детей с нарушением зрения в Специализированном Дошкольном Образовательном Учреждении №5 города Джизак. В статье описаны обязанности воспитателя, индивидуальный подход, специальные методы и средства, а также пути обеспечения физического, речевого и социального развития детей.

**Ключевые слова:** Дети с нарушением зрения, специальное образование, воспитание, специализированный детский сад, индивидуальный подход, развитие

**Abstract:** This article highlights the experience of educating and developing visually impaired children in the Specialized Preschool Institution No. 5 in Jizzakh city. The article discusses the educator’s responsibilities, individual approach, special methods and tools, as well as ways to ensure the children’s physical, speech, and social development.

**Keywords:** Visually impaired children, special education, upbringing, specialized preschool, individual approach, development

Jizzax shahar 5 sonli Davlat Ko‘p Tarmoqli Ixtisoslashgan Maktabgacha Ta‘lim Tashkilotida ta‘lim va tarbiya olib kelayotgan bolalarni maktab ta‘limiga har tomonlama tayyorlash, ularning jismoniy, aqliy va ma‘naviy rivojini ta‘minlashga xizmat qiluvchi muhim ta‘lim muassasalaridan biridir. Muassasa Jizzax viloyati, Jizzax shahri, Xalqaobod mahallasi, R. Isayev ko‘chasi 14-uy manzilida joylashgan bo‘lib, davlat tasarrufidagi muassasa hisoblanadi. Tashkilot o‘z faoliyatini O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi hamda hududiy maktabgacha ta‘lim bo‘limi tomonidan belgilangan me‘yoriy-huquqiy hujjatlar asosida olib boradi.

Muassasada 3–6 yoshdagi bolalar qamrab olinib, ularning yosh va individual xususiyatlarini inobatga olgan holda ta‘lim-tarbiya jarayoni tashkil etiladi. Mashg‘ulotlar

davlat maktabgacha ta’lim standartlari asosida olib borilib, bolalarning nutqi, tafakkuri, ijodiy qobiliyatlari, jismoniy rivoji hamda ijtimoiy moslashuv ko‘nikmalari shakllantiriladi.

Bog‘chaning afzalliklari juda ko‘p. Muassasa davlat tasarrufida bo‘lgani sababli ta’lim-tarbiya sifati doimiy nazoratda bo‘ladi. Ko‘p tarmoqli ixtisoslashgan yo‘nalish bolalarning aqliy, jismoniy, nutqiy, ijtimoiy va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Sog‘lomlashtirish tadbirlari, jismoniy mashqlar, sog‘lom ovqatlanish va gigiyena qoidalariga rioya qilish doimiy nazoratda bo‘ladi. Pedagog xodimlar tajribali va malakali bo‘lib, har bir bolaning qobiliyati va qiziqishlarini inobatga olib, individual yondashuvni qo‘llaydi. Ota-onalar bilan samarali hamkorlik orqali tarbiya jarayoni yanada samarali bo‘ladi.

Bog‘chaning yana bir katta qulayligi shundaki, bolalar haftada 6 kun, dushanbadan shanbagacha yotib qolishlari mumkin, ular sifatli oziq-ovqat bilan ta’minlanadi va bularning barchasi mutlaqo bepul. Har bir guruhga 3 nafar tarbiyachi va 3 nafar yordamchi tarbiyachi biriktirilgan, tunda esa alohida tarbiyachi navbatchilikda qoladi. Bu esa bolalarning xavfsizligi, sog‘ligi va sifatli ta’lim olishini kafolatlaydi.

Muassasa erishgan yutuqlari ham sezilarli. Ta’lim-tarbiya jarayoni samarali tashkil etilgani tufayli bolalarning maktabga tayyorgarlik darajasi oshgan, nutqi, mustaqil fikrlashi, ijtimoiy faolligi va ijodiy qobiliyatlari rivojlanmoqda. Ochiq mashg‘ulotlar, madaniy-ma’rifiy tadbirlar va pedagogik innovatsiyalar bolalarning ta’lim jarayoniga qiziqishini oshirishga xizmat qiladi.

Bog‘chada jami 8 ta guruh faoliyat yuritadi. Ularning tarkibi quyidagicha:

- Zaif ko‘ruvchi bolalar guruhi
- Zaif eshituvchi bolalar guruhi
- Nutqida nuqsoni bo‘lgan bolalar guruhi
- Nutqida murakkab nuqsoni bo‘lgan bolalar guruhi
- Tayanch apparatida nuqsoni bor bolalar guruhi
- Aqliy rivojlanishi orqada qolgan bolalar guruhi va boshqa maxsus ehtiyojli bolalar guruhlari mavjud.

Har bir guruhda bolalarning yosh va individual xususiyatlariga moslashtirilgan ta’lim-tarbiya jarayoni olib boriladi. Imkoniyati cheklangan va ko‘zi ojiz bolalar uchun moslashtirilgan guruhlar ham mavjud bo‘lib, individual yondashuv asosida mashg‘ulotlar tashkil etiladi.

Shuningdek, ko‘zi ojiz bolalar bilan ishlashda maxsus yondashuv qo‘llaniladi. Pedagoglar inklyuziv ta’lim tamoyillari asosida ishlab, individual ehtiyojlarni inobatga oladi. Bolalar uchun moslashtirilgan o‘yinlar, nutqni rivojlantirish mashg‘ulotlari, motorik va hissiy rivojlanish mashqlari qo‘llaniladi. Maxsus materiallar va vositalar (Braille yozuvlar, tovushli o‘yinchoqlar) ishlatiladi, ota-onalar bilan yaqindan hamkorlik yo‘lga qo‘yiladi. Bu sharoitlar ko‘zi ojiz bolalarning ta’lim jarayonida faol ishtirokini oshiradi va maktab bosqichiga puxta tayyorlaydi.

Umuman olganda, Jizzax shahar 5 sonli Davlat Ko‘p Tarmoqli Ixtisoslashgan Maktabgacha Ta’lim Tashkiloti bolalarning har tomonlama rivojlanishi, sog‘lom va xavfsiz

muhitda ta’lim olishini ta’minlaydi, ularni maktab bosqichiga puxta tayyorlaydi va jamiyatga barkamol shaxs sifatida tayyorlaydi. Shu bilan birga ko’rishda nuqsoni bor bolalar guruhi alohida e’tibor bilan tarbiyalanadi. Ushbu guruhda tarbiyachilar bolalarning individual ehtiyojlarini hisobga olgan holda ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil qiladi. Mashg’ulotlar bolalarning motorik va koordinatsiya ko’nikmalarini rivojlantirishga, nutq va so’z boyligini oshirishga, shuningdek, ijtimoiy va muloqot ko’nikmalarini shakllantirishga qaratilgan.

Tarbiya jarayonida maxsus o’yinlar, teginish va tovush orqali o’rganish materiallari, Braille yozuvlari va boshqa moslashtirilgan vositalar qo’llaniladi. Bu bolalarning atrof-muhitni idrok etish qobiliyatini oshirish, xavfsiz harakat qilish ko’nikmalarini rivojlantirish va mustaqil faoliyat ko’rsatish imkoniyatlarini kengaytiradi. Shuningdek, tarbiyachilar ot-onalar bilan yaqindan hamkorlik qilib, bolalarning uy sharoitida ham rivojlanishiga ko’maklashadi va har bir bolaning rivojlanish sur’atini doimiy kuzatib boradi.

#### Innovatsion Metodikalarning Pedagogik Asoslari

Ko’rishda nuqsoni bor bolalarning ta’lim olish samaradorligini oshirishda bugungi kunda "Kompensator mexanizmlarni shakllantirish" nazariyasi asosiy o’rin tutadi. Uning pedagogik asoslari va metodlarini quyidagilar tashkil qiladi.

Polisensorli ta’lim: Bu metodika bolaning ko’rish o’rnini bosuvchi boshqa sezgi organlarini (taktil, eshitish, hid bilish, vestibulyar apparat) bir vaqtda ishga solishga asoslangan. Bu ko’rish imkoniyati cheklangan bolalarning kognitiv (bilish) jarayonlarini faollashtirish maqsadida, buzilgan ko’rish funksiyasi o’rnini saqlanib qolgan analizatorlar (eshitish, taktil-kinestetik, hid bilish, vestibulyar tizim) majmuasi orqali kompensatsiya qilishga yo’naltirilgan pedagogik texnologiyadir.

Ushbu metodikaning asosi miyaning neyroplastiklik xususiyatiga tayanadi. Ko’rish analizatori orqali axborot oqimi to’xtaganda, bosh miya qobig’ining ko’rishga mas’ul bo’lgan zonalari boshqa sensorli tizimlardan keladigan signallarni qayta ishlashga moslashadi. Polisensor yondashuv bolada dunyo haqidagi tasavvurlar faqatgina verbal (so’z orqali) emas, balki real hissiy obrazlar asosida shakllanishini ta’minlay

Polisensorli o’qitish jarayoni quyidagi sensorli kanallarni tizimli birlashtiradi:

Taktil-kinestetik kanal: Bu jarayonda ob’ektning mikrostereognostik (mayda bo’laklar) va makrostereognostik (umumiy shakl) xususiyatlari o’rganiladi. Bola predmetning teksturasi, zichligi, vazni va haroratini aniqlash orqali uning moddiy xususiyatlarini o’zlashtiradi.

Akustik-vokal kanal: Tovushli orientirlar nafaqat axborot manbai, balki fazoviy koordinatsiyani belgilovchi asosiy vosita hisoblanadi. Bunda "tovushli soya" va exolokatsiya tushunchalari muhim rol o’ynaydi.

Olfaktor va vestibulyar tizim: Atrof-muhitdagi o’ziga xos hidlar va tananing muvozanat holati bolaga o’zining fazoviy o’rnini (lokatsiyasini) aniqlashda yordam beradi. Ko’rishda nuqsoni bor bolalarda ko’pincha "tasavvurlar defitsiti" yoki "formalizm" kuzatiladi — ya’ni bola so’zni biladi, lekin uning mazmunini (predmetli obrazini) his

qilmaydi. Polisensorli ta’lim ushbu bo’shliqni ob’ektni bevosita ushlab ko’rish, eshitish va his qilish orqali to’ldiradi. Natijada bolaning nutqi real hayotiy tajriba bilan bog’lanadi.

Korreksion-rivojlantiruvchi o’yinlar: Maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalar uchun "fazoviy tasavvurlarni shakllantirish" o’yinlari. Masalan, ob'ektlarning hajmi, shakli va joylashuvini tovushli signallar orqali aniqlash.

Lego-terapiya va Robototexnika: Maxsus taktil Lego detallari yordamida bolalarda mayda motorikani va konstruktiv fikrlashni rivojlantirish. Bu kelajakda Brayl yozuvini tezroq o’zlashtirishga yordam beradi.

Ko’rishda nuqsoni bor bolalar guruhidagi tarbiyachining asosiy maqsadi — bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta’minlash, ularni maktabga tayyorlash va jamiyatga barkamol shaxs sifatida chiqarishdir. Shu sababli, tarbiyachi har bir bolaning qobiliyatini inobatga olgan holda individual yondashuvni qo’llaydi, xavfsiz va qulay muhit yaratadi hamda bolalarni rag’batlantirish orqali ularning o’ziga bo’lgan ishonchini oshiradi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi. “Maktabgacha ta’lim standartlari”. Toshkent, 2020.
2. Abdurahmonova, N. Maxsus ehtiyojli bolalarni tarbiyalash metodikasi. Toshkent: O‘qituvchi, 2018.
3. Ismoilov, S. Ko’rishda nuqsoni bor bolalar bilan ishlash bo’yicha qo’llanma. Toshkent, 2019.
4. Karimova, D. Bolalarni inklyuziv ta’limda rivojlantirish. Jizzax, 2021.
5. O‘zbekiston Respublikasi Ta’lim kodeksi. Toshkent, 2019.